Annotatsiya. Hozirgi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlari iqlim o'zgarishi va an'anaviy energiya resurslarining kamayib borishi bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqda, bu esa muqobil va barqaror energiya manbalariga o'tishni taqozo etadi. Jahon hamjamiyatining ajralmas qismi sifatida O'zbekiston Respublikasi ham ushbu global chaqiriqlardan chetda emas va energetika tizimini modernizatsiya qilish yo'lida izchil choralarni amalga oshirmoqda. Mazkur maqolada O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish jarayonida yuzaga kelayotgan institutsional, iqtisodiy va texnologik muammolar kompleks tarzda tahlil qilinadi hamda ularning rivojlanish istiqbollari baholanadi. Tadqiqot natijalari qayta tiklanadigan energiya manbalarini keng joriy etish energetika xavfsizligini mustahkamlash, ekologik barqarorlikni ta'minlash va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: qayta tiklanadigan energiya, energiya transformatsiyasi, barqaror rivojlanish, energetika siyosati, energiya xavfsizligi, O'zbekiston.

Abstract. Currently, many countries around the world are facing challenges related to climate change and the depletion of traditional energy resources, which necessitates a transition to alternative and sustainable energy sources. As an integral part of the global community, the Republic of Uzbekistan is also not isolated from these global challenges and is consistently implementing measures to modernize its energy system. This article provides a comprehensive analysis of the institutional, economic, and technological challenges arising in the process of Uzbekistan's transition to renewable energy sources, as well as an assessment of their development prospects. The results of the study show that the widespread adoption of renewable energy sources is a key factor in strengthening energy security, ensuring environmental sustainability, and supporting long-term economic growth.

Key words: renewable energy, energy transition, sustainable development, energy policy, energy security, Uzbekistan.

Аннотация. В настоящее время многие страны мира сталкиваются с проблемами, связанными с изменением климата и сокращением традиционных энергетических ресурсов, что требует перехода к альтернативным и устойчивым источникам энергии. Являясь неотъемлемой частью мирового сообщества, Республика Узбекистан также не остается в стороне от этих глобальных вызовов и последовательно реализует меры по модернизации энергетической системы. В данной статье комплексно анализируются институциональные, экономические и технологические проблемы, возникающие в процессе перехода Узбекистана к возобновляемым источникам энергии, а также оцениваются перспективы их развития. Результаты исследования показывают, что широкое внедрение возобновляемых источников энергии является важным фактором укрепления энергетической безопасности, обеспечения экологической устойчивости и поддержки долгосрочного экономического роста.

Ключевые слова: возобновляемая энергия, энергетическая трансформация, устойчивое развитие, энергетическая политика, энергетическая безопасность, Узбекистан.



KIRISH

Hozirgi kunda dunyo miqyosida iqlim o'zgarishining kuchayishi va tabiiy energiya resurslarining bosqichma-bosqich kamayib borishi energetika tizimlarini transformatsiya qilish zaruratini yanada dolzarb qilmoqda. Shu sababli ko'plab davlatlar qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tishni strategik yo'nalish sifatida belgilamoqda. Xalqaro Energetika Agentligi (IEA) ma'lumotlariga ko'ra, 2014-yilda global CO₂ chiqindilari 34,8 gigatonnani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 37,8 gigatonnaga yetgan. Bu holat so'nggi o'n yil davomida dunyo bo'yicha CO₂ emissiyalarining barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatadi[1]. Mazkur jarayon qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tishni global energetika siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi ham energetika tizimini diversifikatsiya qilish va modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirmoqda.

O'zbekiston 2030-yilga borib qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatini 27 gigavattga, umumiy energiya ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi va muqobil manbalardan elektr energiyasi ishlab chiqarishning umumiy hajmini kamida 40 foizga oshirish niyatida. Bu mamlakatga nafaqat energiya resurslarini diversifikatsiya qilish, balki, muhimi, atmosferaga zararli chiqindilarni 34 million tonnaga kamaytirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi ham ushbu global energetik transformatsiya jarayonining faol ishtirokchisi sifatida milliy energetika tizimini diversifikatsiya qilish va modernizatsiya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Mamlakat energetika balansida an'anaviy energiya manbalari hali ham ustunlik qilsa-da, so'nggi yillarda qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan davlat siyosati izchil faollashib bormoqda. Ushbu o'tish jarayoni institutsional, iqtisodiy va texnologik sharoitlarni takomillashtirish bilan birga amalga oshirilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish jarayonining asosiy muammolari va istiqbollarni kompleks tahlil qilishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish asosida yashil energiya manbalarini joriy etish, ulardan samarali foydalanish, energiya ishlab chiqarishda muqobil energiya manbalarining ulushini ko'paytirish, "yashil energetika" siyosatini amalga oshirish bugungi kunning asosiy dolzarb masalalaridan hisoblanmoqda. Mamlakatimiz hukumati tomonidan ushbu masala yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022-yildagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori doirasida 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash bo'yicha harakatlar rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish, milliy iqtisodiyotni tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishiga nisbatan barqarorligini mustahkamlash, milliy iqtisodiyot, xususan sanoatning "yashil" va kam uglerodli rivojlanishini ta'minlash, innovatsiyalarni joriy etish va samarali "yashil" investitsiyalarni jalb qilish, barqaror va inklyuziv "yashil" urbanizatsiyani rivojlantirish, "yashil" iqtisodiyotga o'tish davrida katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan aholi qatlamlarini va ularning yashash joylarini qo'llab-quvvatlash, "yashil" o'sish bo'yicha salohiyatni oshirish va inson kapitalini rivojlantirish, "yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun qulay siyosiy muhit yaratish, samarali institutlarni joriy qilish, tashqi va ichki "yashil" moliyalashtirish oqimlarini ko'paytirish masalalari belgilangan.

B. Isakulov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining dolzarb muammolari va rivojlanish istiqbollari o'rganilgan. Tadqiqotda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish tendensiyalari hamda ularning milliy iqtisodiyotga ta'siri baholangan. Shuningdek, ESG omillari, davlat siyosati va investitsiyalarning roli keng ko'rib chiqilgan. Muallif energiya bozorini liberallashtirish, subsidiya mexanizmlarini qisqartirish va infratuzilmani rivojlantirish zarurligini asoslab bergan [2].

T. Shaydanov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotda O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish jarayonining dolzarb muammolari va istiqbollari tahlil qilingan. Tadqiqotda mamlakat energetika tizimida ko'mir, neft va gazning ustunligi hamda ularning ekologik va ijtimoiy salbiy ta'siri ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, qish mavsumida gaz taqchilligi muammosi va uning sabablariga alohida e'tibor qaratilgan. Muallif qayta tiklanadigan energiya manbalari, jumladan quyosh, shamol va gidroenergetikaning muqobil yechim sifatidagi ahamiyatini yoritgan. Bundan tashqari, xalqaro tajriba asosida ushbu texnologiyalarning ulushi ortib borayotgani ta'kidlangan [3].

Akhmedov va Begmullaev tomonidan olib borilgan tadqiqotda O'zbekistonda energiya balansini ta'minlash muammolari va ularni hal etish yo'llari tahlil qilingan. Tadqiqotda yoqilg'i-energetika sektori iqtisodiyotda muhim o'rin tutishi, investitsiyalarning katta qismi aynan ushbu sohaga to'g'ri kelishi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, energiya samaradorligini oshirish, energiya sig'imini kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini energiya balansiga keng joriy etish zarurligi asoslab berilgan. Mualliflar innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish



va energiya tejavchi yechimlarni joriy etish orqali barqaror energetik rivojlanishga erishish mumkinligini ta'kidlaydi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda "yashil" energiya quvvatlaridan foydalanish masalalarini yoritish, ma'lumotlarni topish, aniqlash va tahlil qilish davomida bir nechta tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Jumladan, O'zbekistonda elektr energiyasini ishlab chiqarish ko'rsatkichlari statistik ma'lumotlari asosida qiyosiy tahlil amalga oshirilgan. Mamlakatimizda muqobil energiyalardan foydalanish masalalari o'rganilgan va muhokama qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda iqtisodiyotni raqamlashtirishning hozirgi bosqichida barqaror rivojlanishni takomillashtirish energetika tarmog'ining raqobatdoshligini oshirishda asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Yashil energetikaga o'tish O'zbekiston uchun ham iqtisodiy, ham ekologik, ham geosiyosiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Hukumat 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalarining jami iste'moldagi ulushini 54 foizga yetkazishni maqsad qilgan[5]. Energetika korxonalarining faoliyatini barqaror rivojlantirishda ularning samaradorligini oshirish yuzasidan asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, bunda energetika sanoatini rivojlantirish konsepsiyasiga mos ravishda korxonalar raqobatbardoshligi va ishlab chiqarish quvvatlarining samaradorligini oshirishga nisbatan uslubiy yondashuvlarni nazariy jihatdan asoslash va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. 2016–2025-yillar oralig'ida qayta tiklanadigan energiya manbalarining rivojlanishi sezilarli ijobiy dinamikani namoyon etgan. 2016-yilda umumiy qayta tiklanadigan energiya quvvati 1 883 MW ni tashkil etgan bo'lib, bu davrda energetika tizimi asosan gidroenergetikaga tayanilgan. Gidroenergetika ulushi deyarli to'liq bo'lib, 1 880 MW darajasida shakllangan, bu esa qayta tiklanadigan energiya sektorining yuqori darajada markazlashganligini ko'rsatadi. Shu davrda shamol va quyosh energiyasi juda past darajada rivojlangan bo'lib, mos ravishda deyarli mavjud emas yoki juda kichik ulushni tashkil etgan.

2020-yilga kelib, qayta tiklanadigan energiya tizimida asta-sekin diversifikatsiya jarayoni kuzatiladi. Umumiy quvvat 2 025 MW ga yetib, gidroenergetika asosiy manba sifatida saqlanib qolgan bo'lsa-da, shamol va quyosh energetikasi bo'yicha dastlabki rivojlanish boshlangan. Xususan, shamol energetikasi 1 MW, quyosh energetikasi esa 4 MW darajasiga yetgan. Bu bosqich qayta tiklanadigan energiya manbalarini kengaytirish bo'yicha dastlabki institutsional va investitsion chora-tadbirlar amalga oshirilgan davr sifatida baholanadi (1-jadval).

1-jadval. Muqobil energiya manbalaridan elektr energiyasi ishlab chiqarish¹

Kategoriya	2016	2020	2024	2025	2024-yilga nisbatan o'sishi % da
Umumiy qayta tiklanadigan energiya (MW)	1 883	2 025	6 079	10 027	65
Gidroenergetika (MW)	1 880	2 021	2 391	2 441	2.1
Shamol energiyasi (MW)	-	1	501	1 652	229.7
Quyosh energiyasi (MW)	2	4	3 188	5 934	86.2%
Bioenergiya (MW)	-	-	-	-	-
Elektr quvvatining qayta tiklanadigan energiya ulushi (%MW)	13.3	12.2	27.5	36.1	31.3

1 IRENA (2026), Renewable capacity statistics 2026, ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi



2024-yilga kelib esa sektor rivojlanishida keskin o'sish kuzatiladi. Umumiy qayta tiklanadigan energiya quvvati 6 079 MW ga yetib, 2020-yilga nisbatan uch baravardan ortiq o'sishni ko'rsatadi. Bu o'sish asosan quyosh va shamol energetikasi hisobiga ta'minlangan. Quyosh energetikasi 3 188 MW ga yetib, asosiy o'sish drayveriga aylangan bo'lsa, shamol energetikasi 501 MW ga yetgan. Hidroenergetika esa nisbatan barqaror rivojlanib, 2 391 MW darajasida saqlangan. Ushbu davrda energiya tizimining diversifikatsiyasi aniq shakllanib, qayta tiklanadigan energiya manbalarining struktura jihatdan kengayishi kuzatiladi.

2025-yilga kelib qayta tiklanadigan energiya sektori yanada yuqori bosqichga chiqadi. Umumiy quvvat 10 027 MW ga yetib, 2016-yilga nisbatan qariyb 5,3 baravar o'sishni ko'rsatadi. Bu davrda quyosh energetikasi yetakchi manbaga aylanib, 5 934 MW ga yetgan bo'lsa, shamol energetikasi ham tez sur'atlarda rivojlanib, 1 652 MW ni tashkil etgan. Hidroenergetika esa 2 441 MW darajasida nisbatan barqaror o'sishni davom ettirgan. Natijada qayta tiklanadigan energiya tizimida quyosh va shamol energiyasining ulushi sezilarli darajada oshib, energiya ishlab chiqarishning diversifikatsiyalashgan modeli shakllangan.

Shuningdek, elektr energiyasi ishlab chiqarish tarkibida qayta tiklanadigan manbalar ulushi 2016-yildagi 13,3 foizdan 2025-yilda 36,1 foizgacha oshgan. Bu esa mamlakat energetika tizimida yashil energiya ulushining barqaror ravishda kengayib borayotganini va an'anaviy energiya manbalariga bog'liqlikning kamayib borayotganini ko'rsatadi. Umuman olganda, tahlil qilinayotgan davrda qayta tiklanadigan energiya sohasida sezilarli texnologik modernizatsiya, investitsion faollik va tarkibiy diversifikatsiya jarayonlari amalga oshirilgan.

O'zbekistonning energiya tizimi asosan an'anaviy yoqilg'i resurslariga, xususan tabiiy gaz va ko'mirga tayangan holda shakllangan. Mamlakat elektr energiyasining katta qismi issiqlik elektr stansiyalari (IES) tomonidan ishlab chiqariladi. Bu holat, bir tomondan, mavjud resurs bazasidan samarali foydalanishni ta'minlansa, ikkinchi tomondan, energiya tizimining ekologik va iqtisodiy barqarorligiga sezilarli bosim yaratadi.

So'nggi yillarda elektr energiyasiga bo'lgan talabning tez o'sishi, aholi sonining ortishi, sanoatning kengayishi hamda urbanizatsiya jarayonlari energiya tizimiga qo'shimcha yuklama bermoqda. Natijada ayrim hududlarda elektr energiyasi ta'minotida uzilishlar va quvvat yetishmovchiligi holatlari kuzatilmoqda.

Energiya tizimining asosiy muammolaridan biri — infratuzilmaning eskirganligi hisoblanadi. Elektr stansiyalarining bir qismi uzoq yillardan beri ekspluatatsiyada bo'lib, ularning samaradorligi past darajada qolmoqda. Shuningdek, elektr uzatish va taqsimlash tarmoqlarida texnik yo'qotishlar yuqori bo'lib, bu umumiy energiya samaradorligini kamaytiradi.

Bundan tashqari, energetika sektorining tabiiy gazga yuqori darajada bog'liqligi iqtisodiy va strategik xavflarni yuzaga keltiradi. Global energiya bozoridagi o'zgarishlar va ichki talabning ortishi fonida yoqilg'i resurslaridan foydalanish bosimi kuchayib bormoqda.

Ekologik jihatdan esa issiqlik elektr stansiyalarining ustunligi atmosferaga chiqarilayotgan karbonat anhidrid (CO_2) va boshqa zararli gazlar miqdorining oshishiga olib keladi. Bu esa iqlim o'zgarishi jarayonlarini tezlashtiradi hamda atrof-muhit sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.


Shuningdek, energiya ishlab chiqarishning markazlashgan tizimi ayrim hududlarda energiya resurslarining notekis taqsimlanishiga sabab bo'lmoqda. Bu holat hududiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarni yanada kuchaytiradi.

Umuman olganda, O'zbekiston energiya tizimi hozirgi bosqichda barqaror rivojlanish uchun transformatsiyaga muhtoj bo'lib, bu jarayon qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Quyidagi diagramma orqali O'zbekistonning 2016–2023-yillar davomida umumiy energiya ta'minoti tarkibini manbalar kesimida tahlil qilish imkonini beradi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakat energiya balansida tabiiy gaz mutlaq ustun manba bo'lib qolmoqda. Xususan, 2016-yilda 1 340 854 TJ ni tashkil etgan gaz iste'moli 2021-yilga kelib 1 764 191 TJ gacha oshgan, keyingi yillarda esa biroz pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, 2023-yilda ham 1 636 681 TJ darajasida saqlanib qolgan.

Zamonaviy qayta tiklanuvchi energiya manbalari — quyosh, shamol va boshqa texnologiyalar bo'yicha esa sezilarli o'sish faqat so'nggi yillarda kuzatilmoqda. Masalan, 2016–2018-yillarda bu ko'rsatkich deyarli nol darajada bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 2 266 TJ ga yetgan. Bu ijobiy dinamika bo'lsa-da, umumiy energiya ta'minotidagi ulushi hanz juda pastligicha qolmoqda.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari tarkibida asosiy ulush gidroenergetika hissasiga to'g'ri keladi. Biroq uning hajmi umumiy energiya balansiga nisbatan ancha past darajada bo'lib, 2016–2023-yillar davomida 17 000–28 000 TJ oralig'ida tebranib turadi. Bu esa gidroenergiya salohiyati mavjud bo'lsa-da, uning to'liq darajada foydalanilmayotganini anglatadi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston: Manbalar bo'yicha umumiy energiya ta'minoti²

Yuqoridagi ma'lumotlardan ma'lumki, O'zbekiston energetika tizimi asosan qayta tiklanmaydigan energiya manbalariga tayanishini yaqqol ko'rsatadi. Tabiiy gaz bilan bir qatorda ko'mir va neft mahsulotlari ham umumiy energiya ta'minotida muhim o'rin egallaydi. Jumladan, ko'mir iste'moli 2016-yildagi 74 896 TJ dan 2023-yilda 170 347 TJ gacha keskin oshgan bo'lib, bu yoqilg'i diversifikatsiyasi amalga oshirilayotganini bildirsada, baribir qazilma yoqilg'ilarga bog'liqlikni kuchaytiradi. Neft mahsulotlari iste'moli ham izchil o'sib, 152 200 TJ dan 236 683 TJ gacha yetgan.

Umuman olganda, keltirilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston energetika tizimi hozirgi bosqichda qayta tiklanmaydigan energiya manbalariga yuqori darajada bog'liq bo'lib qolmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanish sur'ati oshib borayotganiga qaramay, ularning umumiy energiya balansidagi ulushi hali yetarli darajada emas. Bu esa energiya tizimini diversifikatsiya qilish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda uzoq muddatli energiya xavfsizligini mustahkamlash uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etishni talab etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda energetika tizimini transformatsiya qilish va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda, ayniqsa quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish bo'yicha sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilib, qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari hajmi bir necha barobarga oshgan.

2 IEA. Energy Statistics Data Browser ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi



Amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakat energetika tizimida tabiiy gaz, ko'mir va neft mahsulotlari kabi an'anaviy energiya manbalari muhim o'rin tutmoqda. Total Energy Supply (TES) tarkibida ushbu manbalarning salmoqli ulushi saqlanib qolayotgani energetika tizimini yanada diversifikatsiya qilish va energiya manbalari tarkibini kengaytirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini anglatadi.

Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va investitsiyalar natijasida ushbu yo'nalishda ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Biroq ularning umumiy energiya balansidagi ulushini yanada oshirish ekologik barqarorlikni mustahkamlash, energiya samaradorligini oshirish hamda uzoq muddatli energiya xavfsizligini ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, O'zbekistonda "yashil energetika"ga o'tish uchun zarur institutsional asoslar va strategik maqsadlar shakllangan bo'lsa-da, ushbu jarayonni jadallashtirish, energiya ishlab chiqarish tarkibini diversifikatsiya qilish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini oshirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish. Quyosh va shamol energetikasi loyihalarini kengaytirish orqali umumiy energiya balansida qayta tiklanuvchi manbalar ulushini oshirish zarur.

2. Energiya tizimini diversifikatsiya qilish. Tabiiy gazga yuqori darajadagi bog'liqlikni kamaytirish maqsadida energiya manbalari tarkibini muvozanatlashtirish lozim.

3. Elektr energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish. Eskirgan elektr tarmoqlarini yangilash, texnik yo'qotishlarni kamaytirish va "aqlli tarmoqlar" (smart grid) texnologiyalarini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

4. Energiya saqlash texnologiyalarini rivojlantirish. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining beqarorligini kamaytirish uchun zamonaviy energiya saqlash tizimlarini (bataryalar, gidroakkumulyatsiya) keng joriy etish zarur.

5. Xususiy sektor va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Energetika sohasida davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlarini kengaytirish orqali investitsiya muhitini yaxshilash lozim.

6. Energiya samaradorligini oshirish. Sanoat va uy xo'jaliklarida energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish orqali umumiy energiya iste'molini kamaytirish mumkin.

7. Kadrlar salohiyatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish. "Yashil energetika" sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash va ilmiy-innovatsion ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. IEA (2025), *Global CO₂ emissions from energy combustion and industrial processes and their annual change, 1900–2023*, IEA, Paris. <https://www.iea.org/data-and-statistics/charts/global-co2-emissions-from-energy-combustion-and-industrial-processes-and-their-annual-change-1900-2023>, Licence: CC BY 4.0
2. Bakhtigul Isakulova, Lobar Usmanova and Dilafruz Saidvaliyeva, *Transition to a Green Economy in Uzbekistan: Prospects and Challenges for the Development of Renewable Energy*. E3S Web Conf., 574 (2024) 01004. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202457401004>
3. T. Shaydanov, G. Abirova, N. Engalicheva, U. Aliev and A. Gulyamova, *Transition of Uzbekistan to renewable energy sources: Challenges and prospects*. E3S Web of Conf., 405 (2023) 02018. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340502018>
4. Otabek Akhmedov and Otabek Begmullaev, *The ways ensuring energy balance in Uzbekistan*. E3S Web of Conf., 216 (2020) 01137. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202021601137>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022-yildagi PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>